



ENERGETIKA KOMPANIYALARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIK JIHATLARI

*i.f.d., dots. **To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich**
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
ORCID: 0009-0000-5868-7843
nozimjon_49@mail.ru*

Annotatsiya. Ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini joriy etishni o'rganish va undan samarali foydalanish yo'llarini hamda unga ta'sir etuvchi omillarni hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning asosiy vazifalari, raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyihalashda va ushbu tizimlarni tashkil etishda bir qator kamchiliklari, raqamlashtirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shu sohadagi butun jahon hamjamiyati tamoyillari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari, elektr energiya, elektr energiya kompaniyalari texnologik jarayonlari.

АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ

*д.э.н., доц. **Туйчибоев Нозимжон Солиевич**
Андижанский институт экономики и строительства*

Аннотация. В научной статье изложены пути изучения и эффективного использования внедрения автоматизированных информационных технологий в национальную экономику в условиях цифровой экономики, факторы, влияющие на это, основные задачи внедрения и развития цифровых технологий, ряд недостатков в проектировании автоматизированных информационных систем на базе цифровых технологий и организации этих систем, а также принципы всего мирового сообщества в этой области для успешной реализации программы цифровизации.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, автоматизированные информационные технологии, электроэнергетика, технологические процессы предприятий электроэнергетики.

ASPECTS OF THE EFFICIENCY OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ACTIVITIES OF ENERGY COMPANIES

DSc, assoc. prof. **Tuychiboyev Nozimjon Soliyevich**
Andijan Institute of Economics and Construction

Abstract. *The scientific article describes the ways of studying and effectively using the introduction of automated information technologies in the national economy in the context of the digital economy, the factors influencing this, the main tasks of the introduction and development of digital technologies, a number of shortcomings in the design of automated information systems based on digital technologies and the organization of these systems, as well as the principles of the entire world community in this area for the successful implementation of the digitalization program.*

Keywords: *digital technologies, digitalization, information and communication technologies, automated information technologies, electric power industry, technological processes of electric power enterprises.*

Kirish.

Dunyoning barcha mamlakatlari turli darajada, raqamlashtirish jarayonlarini amalga oshirmoqdalar. Noto'g'ri tanlangan raqamlashtirish strategiyasi yoki uning yetarli darajada faol emasligi mamlakat hayotining barcha sohalarida sezilarli, ba'zan esa keskin dramatik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bizga ma'lumki, birinchi raqamlashtirish jarayonlarini boshlagan davlat AQSH hisoblanadi. Raqamlashtirishning samarador va istiqbolli ekanligini anglab yetgan sanoati rivojlangan mamlakatlar ham o'z faoliyatlarida jadal holatda raqamlashtirish va telekommunikatsiyalarni joriy etish sur'atlarini oshira boshladilar. Hozirda, Amerika Qo'shma Shtatlarining ishbilarmonlar va siyosiy matbuotida ularning boshqa rivojlangan mamalakatlar tomonidan kompyuter va telekommunikatsiya hamda mikroelektronika sohalarida bozordan siqib chiqarilayotganligi katta munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda AKT rivojining ortda qolishi hamda unga nisbatan e'tiborsizlik davlatning iqtisodiy rivojiga salbiy ta'sir qilayotganligini ta'kidlashmoqda.

Mamlakat iqtisodiy potensialini taqqoslash va baholash uchun hozirgi kunda raqamli axborot mahsulotlari, xizmatlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi o'rinni egallab turgan Yaponiya davlatining axborot dasturi konsepsiyasi va dasturlari qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Har qanday mamlakatda, uning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar mamlakat rivoji uchun jamiyatni raqamlashtirish muqarrar va zarurligi e'tirof etilmoqda. Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy xususiyatlari va sharoitlaridan kelib chiqib, milliy raqamlashtirish dasturlarini yaratishgan. Bu dasturlarni ishlab chiqishda ular rivojlangan davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan jamiyatni raqamlashtirish dasturlarini yaxshi va yomon tomonlariga jiddiy e'tibor qaratishlari va raqam-lashtirish yo'nalishlarida ularni e'tiborga olishlari zarur bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, AKTdan milliy iqtiso-diyotimizning turli sohalarida foydalanish muammolari etakchi iqtisodchi olimlar va mutaxassislar, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari sohasida bir qator iqtisodchi olimlarning fikrlari keltirib o'tilgan. Iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari sohasidagi taniqli olimlar, xususan, G'ulomov (2010) tadqiqotlari milliy iqtisodiyotning turli sohalarida AKTdan foydalanish va joriy etish samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Aripov (2003) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorini butun tizim sifatida ko'rib chiqadi va ular asosida makrodarajada boshqaruv konsepsiyasini

taklif qiladi. Sultonovanning (2009) ilmiy ishlarida temir yo'l transporti korxonalarida buxgalteriya hisobi ma'lumot tizimlarining ishlash usullari bo'yicha yondoshuvlar va takliflar berilgan. Shuningdek, Trofimova (2006) kompaniyalar va korxonalarni boshqarishda axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha hamda Trubilina (2000) iqtisodiyotda avtomatlashtirilgan axborot texnologiya darsligida kompaniyalarga avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy takliflar berishgan. Dresher (2005) ham ishlab chiqarish korxona va kompaniyalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish yo'nalashida bir qator ilmiy va nazariy takliflarini asoslab bergan. Provalov (2008) esa kompaniya va korxonalarni axborot texnologiyalarini boshqarishni tashkil etish bo'yicha o'z ilmiy taklif va tavsiyalarini bergan. Shu bilan birga mamlakatimiz olimlaridan Umarov (2018) kommunal to'lovlari hisob-kitob jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ham o'z taklif tavsiyalarini asoslab bergan bo'lib, hozirda kommunal to'lovlari hisob-kitob bilan shug'ullanadigan korxonalarda ushbu berilgan ilmiy takliflaridan foydalanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil hamda ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda elektroenergiyani iste'mol qilish bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning axborot jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- davlat organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar axborot tizimlarining bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi asosida Milliy axborot tizimini shakllantirishni ta'minlash;

- davlat organlarining o'z funksiyalarini bajarishda tezkorlik va sifatni oshirishga imkon beruvchi faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratish;

- davlat organlari tomonidan tadbirkorlik sub'yektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va sifatini yaxshilash, tegishli axborot resurslaridan keng ko'lamda, shu jumladan, qishloq joylarda foydalanishni ta'minlash;

- axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomil-lashtirish.

Moliyaviy va inson resurslarini boshqarish uchun yirik tashkilotlarda moliya-reja bo'limlari va kadrlar bo'limi mavjud bo'lganligi kabi, AKT bo'limi ham kompaniyaning axborot resurslariga egalik qiladi. AKTda yuz berayotgan o'zgarishlar, ulardan foydalanish usullari va yordami bilan AKT bo'limlarining kompaniya faoliyatidagi o'rni bugungi kunda tubdan o'zgardi. Boshqaruvni samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq. Ularning asosiylaridan biri menejerning axborot resurslari bilan ishlashni tashkil etish qobiliyati bo'lib, u moddiy, moliyaviy va energiya ta'minoti bilan bir qatorda har qanday ishlab chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy tizimning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Axborotlarni yetishmasligi axborotlarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarib, axborot tizimidagi mavjud va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar o'rtasidagi farqni ongli ravishda tushunish talab etiladi. Mavjud ma'lumotlar bazasi kompaniyaning biznes jarayonlariga mos bo'lishi kerak. Ma'lumotlarni yetarli bo'lishi bu real ish jarayonlaridan olingan biznes jarayonni ma'lumotlar yordamida yaratilgan tasvirining mos kelishini darajasini bildiradi. Axborot menejmenti kompaniyaning umumiy boshqarishning ajralmas bir qismi hisoblanadi. O'tish davri iqtisodiyoti sharoitida kompaniyalarni boshqarish ma'lum bir ularning bozor sharoitlarida tovar yoki biror mahsulot ishlab chiqarishi jamiyatning texnik va

texnologik rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Menejmentni rivojlantirish iqtisodiyotda axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish uchun asosdir.

Bugungi kundagi raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini loyihalashda va ushbu tizimlarni tashkil etishda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda:

- menejmentda boshqaruv jarayonlarini doimiy ravishda yangilab turish zarurligi qayd etilgan bo'lib, raqamli texnologiyalar sharoitida ko'p hollarda bu imkonsiz bo'lib ko'rinadi;

- raqamli texnologiyalarni joriy etishda shaxsiy va tashkiliy omillarning e'tiborga olinmasligi ko'pincha konsalting bo'yicha jalb etilgan mutaxassislarni harakatlarini samarasiz bo'lishiga olib keladi;

- raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan axborot tizimida boshqaruvchi rolini to'g'ri baholamaslik va ro'llarni turli foydalanuvchilar o'rtasida noto'g'ri taqsimlash boshqaruvni axborot tizimlari samarasini pasaytirib yuboradi;

- avtomatlashtirish samaradorligini yetarli darajada baholamaslik, boshqaruv xarajatlarini asossiz tarzda pasaytirib yuborish, xodimlarni ishdan bo'shatish, avtomatlashtirishni va real samarani pasaytirishga va umidsizlikka olib keladi, aslida bu xarajatlar boshqaruv jarayonlarini va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qilishi kerak;

- boshqaruv jarayonlarida ish joylarini elementar jihozlar kompyuterlar bilan almashtirish boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda xarajatlarni ko'payishiga olib keladi, lekin samaradorlikni oshishiga olib kelmaydi;

- texnologik sohada, texnik va dasturiy ta'minotlarini tez almashishi axborotlarni boshqarish uslubiyatini asbob-uskunalarining jismoniy eskirish tezligidan sezilarli tarzda o'sishini oshishiga olib keladi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida hisob-kitob ishlarini tashkil etishning afzalliklari yaxshi ma'lum bo'lib, bu tizimlar uzoq yillar davomida chet mamlakatlarda hamda mamlakatimiz yirik sanoat korxonalarida qo'llanilmoqda. Elektr energiyasi bozorini liberallashtirish, juda ko'p mintaqaviy tarmoqlarni va energiya sotuvchi kompaniyalarni yuzaga kelishi munosabati bilan elektr energiyasining yangi tashkil bo'lgan hududlarda energiya tijorat hisobini tashkil etishlari zarur. Shuningdek, elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasining dastlabki moliyaviy parametrlari ming AQSH dollardagi hisobini 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin (Трофимова, 2006).

Raqamlashtirish dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shu sohadagi butun jahon hamjamiyati tamoyillarga rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- og'ir sanoat tarmoqlariga asoslangan iqtisodiyot tizimlarini ilm bilim talab qiladigan tarmoqlarga almashtirish zaruriyati;

- axborot sektorining ustuvorligini tan olish. Muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qodir yangi infratuzilma va xizmatlar sohasini yaratish;

- dunyo fani va texnologiyalarining yutuqlaridan keng foydalanish;

- davlat va xususiy sektorlarga raqamlashtirish uchun katta moliyaviy resurslarni investitsiya qilish;

- mamlakatni raqamlashtirishning asosiy maqsadi kommunikatsiya va axborotlarni qayta ishlash hisobiga mamlakat uning fuqarolarini farovonligini ta'minlashdan iboratdir.


Tadqiqotlarimiz natijasida elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasining dastlabki moliyaviy parametrlari xarajatlar turi va xarajatlar miqdori 1-jadvalda ko'rsatib o'tdik (Qaror, 2020).

1-jadval.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasining dastlabki moliyaviy parametrlari (ming AQSH doll.)

T/r	Xarajatlar turi	Xarajatlar miqdori
	Jami	552 000
1.	Hisoblagichlar va boshqa asbob-uskunalar	465 000
2.	Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (bino, asbob-uskunalar, dasturiy ta'minot va boshqalar)	34 000
3.	Elektr energiyasi hisobini yuritish, tahlil va prognoz qilishning kompleks dasturiy ta'minoti (yagona billing tizimi)	15 000
4.	Xorijiy konsultantlar va yagona integratorning xizmat xaqi	13 000
5.	Qolgan xarajatlar (ish haqqi, materiallar, transport xarajatlari va boshqalar)	15 000
6.	Ko'zda tutilmagan xarajatlar	1000

Raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan axborot tizimlari korxonalarni boshqarish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida texnikaviy va axborotlar muhitini yaratadi. Bu tizim o'zining texnik parametrlariga ko'ra, kiritish moslamalariga ularning ishlashiga tegishli talablarni qo'yadi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari texnik parametrlari bo'yich AKTning barcha tarkibiy qismlari bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni kiritilishini ta'minlashi kerak. Bu kiritish moslamalariga ularning ishlashiga va samaradorligiga tegishli talablarni qo'yadi. Har qanday kompaniyada bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan va barcha darajadagi boshqaruv qarorlarini qo'llab quvvatlaydigan turli xil maqsadlar uchun bir nechta mahalliy avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bo'lishi maqsadga muvofiqdir[6]. Quyidagi 1-rasmda shunday variantlardan biri ko'rsatilgan.




1-rasm. Qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalar asosida axborot texnologiyalarini qo'llash

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Kompaniyalar murakkab tashkiliy tuzilmalar bo'lib, ularning tarkibiy qismlarini asosiy va aylanma mablag'lar, mehnat hamda moddiy resurslar va boshqalar tashkil etib, ular bir-birlari bilan kompleks holatda murakkab aloqada bo'lib, doimiy tarzda o'zgarib turadi. Bozor iqtisodiyoti barcha turdagi kompaniyalarning faoliyatiga ularning boshqarish funksiyalarini, ishlab chiqarish, mehnat resurslarini, texnologik jarayonlarini kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruvga o'tish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bozor iqtisodiyoti davrida zamonaviy boshqaruvning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etmasdan, operativ boshqarishni tashkil etish mumkin emas. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni tashkil etish, rejalashtirish va

tahlil qilish jarayonlari, moliyaviy faoliyat, mahsulot yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan munosabatlar sohasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning hajmini va murakkabligini oshishiga olib kelmoqda. Mahalliy avtomatlashtirilgan axborot tizimlari o'rtasida aloqalar kompaniyada ishlaydigan ko'plab tizimlar bilan bog'lanishi tashqi muhitga chiqish huquqiga ega, ular turdosh axborot tizimlari bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Zamonaviy aloqalarni tashkil etish kompaniyalar ichida boshqa kompaniyalarni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan tizimlariga chiqish imkoniyati bo'lgan mahalliy kompyuter tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan (Дрешеп, 2005).

Raqamli texnologiyalar asosida AKT qarorlarini qo'llab quvvatlash - bu nafaqat boshqarish jarayonlarini axborot bilan ta'minlash funksiyalarni bajaradigan, balki muayyan vaziyatlarni tahlil qilish va boshqariladigan obyektlar va jarayonlar modellari bazasi asosida eng yaxshi yechimlarni mustaqil ravishda izlash qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiyadir (2-rasm).



**2-rasm. Qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalar negizida
AKT joriy etishning konseptual modeli**

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Bunday AATlar foydalanuvchiga kompaniya va mahalliy miqyosida ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyatini beradi. Agar kompaniya xatti-harakatlar zanjiri sifatida ko'rib chiqilsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yoki xizmatlar narxini bosqichma-bosqich shakllantirish amalga oshirilsa, axborot tizimi eng katta ta'sirga ega bo'lishi mumkin. U holda har xil funksional vazifaga ega bo'lgan, shu zanjirga kirgan AAT boshqaruv miqyosida kompaniya oladigan daromadlarini oshirish to'g'risidagi strategik qarorlar qabul qilish mumkin. Kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan axborot tizimini turli maqsadlarda integratsiyalashuvi asosida kompaniyada AATning korporativ bazasi yaratiladi. Qarorlarni qabul qilish tizimlarida boshqaruv tizimining oldingi o'tmishdagi va hozirgi holati, mavjud manbalar, rejalar, normalar va standartlar, kompaniyaning boshqarish jarayonlarini huquqiy tartibga solish to'g'risidagi ma'lumotlar bazalari muhim rol o'ynaydi[8].

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish juda zarur, chunki bu tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan tahliliy va bashoratlash qobiliyatini oshirish, raqamli uzatish va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalaridan foydalanish orqali boshqaruv funksiyalarini oqilona ishlatish va optimallashtirishga yordam beradi. Kompaniyani boshqarishni avtomatlashtirish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini tanlash ancha murakkab bo'lib, u ko'p mezonli jarayondir. Kompaniyalar ko'pincha dasturiy ta'minot vositalarini sotib olishadi, ularning imkoniyatlari aslida boshqaruv tizimining vazifalariga to'g'ri kelmaydi, natijada bu dasturiy ta'minotdan samarasiz foydalanishga olib keladi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligini pasaytiradi va shuning uchun ham kompaniya boshqarish tizimining yuqori darajasiga erishishini imkonsiz qilib qo'yadi.

AATdan foydalanib, har qanday tashkilotda dinamik o'zgarishlarni faoliyatning uchta asosiy tarkibiy qismi orqali amalga oshirish mumkin, ya'ni mijozlar, hamkorlar va xodimlar bilan munosabatlarni yaxshilash orqali. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini tashkil qilish strategiyasini quyidagi omillar bilan belgilash mumkin: kompaniyaning faoliyat doirasi bilan, kompaniyaning turi bilan, ishlab chiqarish, biznes yoki boshqa faoliyat bilan, kompaniya boshqaruvida qabul qilingan model bilan, boshqaruvning yangi vazifalari bilan va mavjud axborot infratuzilmasi va boshqalar bilan.

Kompaniya faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiyot sektoriga va menejment darajasiga qarab, boshqaruv ob'yektidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar turli ko'rsatkichlarda olinadi. Boshqarish jarayoni ma'lumotlar olish va unga asoslangan qarorlarni qabul qilishdan iborat. Qaror qabul qilishni ta'minlash, kerakli ma'lumotlarni kerakli vaqtda kerakli joyga taqlim etish kompaniya AATning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, qarorlarning tabiati, ularni qabul qilish jarayonlari, qarorlarni qabul qilishning o'ziga xosligi AATni ishlashiga sezilarli ta'sir qiladi. U joylarda ishlatiladigan AKT qo'shimcha ravishda tashkiliy tuzilma, korporativ madaniyat vazifalarini bajarish uchun qabul qilingan jarayonlar kompaniya AATga ta'sirini o'tkazadi.

Rivojlangan davlatlar kompaniyalar boshqaruv tizimini raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda raqamlashtirish borasida olib borilayotgan davlat siyosatida ham raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, elektr energiya tarmog'ini hozirgi kundagi holati tahlili bilan birgalikda elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini keng joriy etish hamda takomillashtirish masalalari dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti davrida zamonaviy kompaniyalar boshqaruvining avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etmasdan, operativ boshqarishni tashkil etish mumkin emas. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini funksional ravishda differensiallash mumkin bo'lib, kompaniyalar ichlaridagi har xil funksiyalarni bajarish uchun maxsus avtomatlashtirilgan axborot tizimlari qo'llaniladi. Kompaniyada boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, axborot tizimi va shaxs ishtirokida matematik modellar yordamida foydalanuvchi xodimlar tomonidan tizimning holatiga tashqi va ichki omillar ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Kompaniya boshqaruv apparati ichki tuzilishini shakllantirishning tizimli tamoyillarini amalga oshirishga kelsak, tashkiliy tuzilma boshqaruv tizimining murakkab xarakteristikasi ekanligini hisobga olish kerak bo'ladi. Kompaniyaning bozorda muvaffaqiyatli ishlashini, avtomatlashtirilgan axborot tizimi va AKTni loyihalash va rejalashtirish ishlarini amalga oshirmasdan tashkil etib bo'lmaydi. Yagona axborot makonining yo'qligi, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish darajasi-ning pastligi va boshqarish tizimining axborot imkoniyatlarini yetarli emasligi bilan bog'lik hisoblanadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Aripov M. va boshqalar (2003) «Informatika, Informasion texnologiyalar». Toshkent, TDTU, 1-qism. –320 b.

G'ulomov S.S., Begalov B.A. (2010) Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. – T.: Fan, - 704 b.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 aprel 260-sonli "Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Umarov O.S. (2018) Kommunal to'lovlari jarayonlarini axborot tizimla-ri asosida samarali tashkil etishning tadqiqoti («Toshkentshahargaz» kor-xonasi misolida) Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy dara-jasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent,. -162.

Дрешер Ю.Н. (2005) Организация информационного производства: учебное пособие. – М.: ФАИР-ПРЕСС, – 248 с.

Провалов В.С. (2008) Информационные технологии управления: учеб. пособие / В.С.Провалов. – М.: Финита: МПСИ, –376 с.

Султонова С.М. (2009) Информационные системы бухгалтерского учета: проблемы, поиски, решения. Монография. – Т.: Фан, -116 с.

Трофимова В.В. (2006) Информационные системы и технологии в экономике и управлении: Учебник/Под ред. Проф. В.В.Трофимова. – М.: Высшее образование, – 480 с.

Трубилина И.Т. (2000) Автоматизированные информационные технологии в экономике: учебник / под общ. ред. И.Т.Трубилина. –М.: Финансы и статистика.